

Инглиз тили yozma nutqini o'rganishda ona tilining salbiy ta'siri

Amanova Madina Xamid qizi
madina.97amanova@gmail.com

O'qituvchisi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Mazkur ilmiy izlanish ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan o'zbek tilida so'zlashuvchi talabalarning yozma nutq rivojlanishiga ona tilining salbiy ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot doirasida yozma nutqda kuzatiladigan grammatik, sintaktik va leksik interferensiya holatlari tahlil qilinib, ularning kelib chiqish sabablari lingvistik va psixolingvistik yondashuvlar asosida yoritilgan. Xususan, o'zbek tilining tipologik xususiyatlari ingliz tili yozma nutqiga qanday ta'sir qilishi real yozma ishlar asosida ko'rib chiqiladi. Interferensiya oqibatida yuzaga keladigan xatoliklar tizimlashtirilib, ularni oldini olishga qaratilgan samarali metodik yechimlar ishlab chiqiladi. Ushbu tadqiqot ingliz tili yozma kompetensiyasini shakllantirish jarayonida ona tilining rolini chuqurroq anglash, xatoliklarni barvaqt aniqlash va ularni tuzatishga qaratilgan tavsiyalarni ilgari suradi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – ingliz tilida yozilgan matnlarda o'zbek tilidan kelib chiqadigan salbiy interferensiya holatlarini aniqlash, ularning sabablari va ta'sir darajasini tahlil qilish hamda bu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan amaliy va metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ishda sifatli (kuzatuv, yozma ishlar tahlili) va miqdoriy (so'rovнома, test natijalari) metodlar uyg'un holda qo'llanildi. Talabalarning yozma ishlarida uchraydigan eng keng tarqalgan xatolar misollar bilan tahlil qilindi va ular tipologik jihatdan tasniflandi.

Kalit so'zlar: interferensiya, kompetensiya, interlanguage, intra-lingval xatolar, konnotatsiyaviy nomuvofiqlik, kognitiv yuklama, uslubiy xatolar

Негативное влияние родного языка на овладение письменной речью на английском языке

Аманова Мадина Хамид кизи
madina.97amanova@gmail.com

Преподаватель
Джизакский государственный педагогический университета

Аннотация: Данное научное исследование посвящено изучению негативного влияния родного узбекского языка на развитие письменной речи у студентов, изучающих английский язык как второй. В рамках исследования проанализированы случаи грамматической, синтаксической и лексической интерференции, наблюдаемые в письменной речи, а также раскрыты причины их возникновения на основе лингвистических и психолингвистических подходов. В частности, на основе анализа реальных письменных работ рассматривается, как типологические особенности узбекского языка влияют на английскую письменную речь. Ошибки, возникающие в результате интерференции, систематизируются и предлагаются эффективные методические решения по их предотвращению. Исследование направлено на более глубокое понимание роли родного языка в формировании письменной компетенции на английском языке, своевременное выявление ошибок и выдвижение рекомендаций по их исправлению. Основная цель исследования – выявить случаи негативной интерференции узбекского языка в английских письменных текстах, проанализировать их причины и степень влияния, а также разработать практические и методические рекомендации по устранению данных проблем. В работе использованы как качественные методы (наблюдение, анализ письменных работ), так и количественные (опрос, результаты тестов). Наиболее

распространённые ошибки в студенческих письменных работах проанализированы на примерах и классифицированы с типологической точки зрения.

Ключевые слова: интерференция, компетенция, межъязыковая интерференция, внутриязыковые ошибки, коннотативное несоответствие, когнитивная нагрузка, стилистические ошибки

The Interference of the Mother Tongue on Learning English Written Speech

Amanova Madina Khamid qizi
madina.97amanova@gmail.com

Lecturer
Jizzakh State Pedagogical University

Annotation: This scientific study is dedicated to exploring the negative influence of the native Uzbek language on the development of written English among Uzbek-speaking students learning English as a second language. The research analyzes instances of grammatical, syntactic, and lexical interference in written speech and explains their origins based on linguistic and psycholinguistic approaches. In particular, it examines how the typological features of the Uzbek language affect written English, using real student writing samples. The errors resulting from interference are systematized, and effective methodological solutions aimed at preventing them are proposed. This study promotes a deeper understanding of the role of the native language in the formation of English writing competence, and offers recommendations for the early identification and correction of errors. The main objective of the study is to identify negative interference cases originating from Uzbek in English texts, analyze their causes and impact, and develop practical and methodological solutions to address these issues. The research employs a combination of qualitative (observation, analysis of written work) and quantitative (surveys, test results) methods. The most common errors found in student writings are analyzed with examples and classified from a typological perspective.

Keywords: interference, competence, interlanguage, intra-lingual errors, connotative mismatch, cognitive load, stylistic errors

Yozma nutq kompetensiyasi – bu til o‘rganayotgan shaxsning o‘z fikrini mantiqan to‘g‘ri, grammatik jihatdan aniq, uslubiy va madaniy me‘yorlarga muvofiq yozma shaklda ifoda eta olish qobiliyatidir. Zamonaviy til o‘rgatish metodikasida yozma nutq kommunikativ kompetensiyaning ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. U o‘rganuvchining so‘z boyligini, grammatik bilimlarini, mantiqiy fikrlash darajasini, shuningdek, ma‘lum bir uslubda yozish malakasini talab qiladi.

Yozma nutqni rivojlantirish bir necha bosqichda amalga oshadi:

- **Tayyorgarlik bosqichi** – o‘rganuvchi matn tuzishning asosiy elementlari bilan tanishadi, oddiy jummalarni tuzadi.
- **Model asosida yozish** – talabalar namunaviy matn asosida o‘z fikrlarini shakllantiradilar.
- **Mustaqil yozish** – o‘rganuvchi mavzuni mustaqil tahlil qiladi va o‘z nutqini ishlab chiqadi.
- **Ijobiy va tanqidiy fikr bildirish** – rivojlangan bosqichda o‘quvchi matn mazmunini baholaydi, asosli fikr bildiradi.

Yozma nutq o‘z mohiyati bilan og‘zaki nutqdan farq qiladi: u oraliq fikrlashni, tuzilmaviy izchillikni va stilistik aniqlikni talab qiladi. Ayniqsa ingliz tilida yozish jarayonida grammatik, sintaktik va uslubiy moslashuv muhim ahamiyatga ega. Bu bosqichlarda o‘rganuvchining ona tilidagi fikrlash modeli ko‘p hollarda ingliz tilidagi yozma ifodaga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Til interferensiyasi – bu o‘rganuvchining ona tilidagi til birliklari va fikrlash modeli ikkinchi tilni egallashga to‘sqinlik qiladigan holatdir. Bu termin ilk bor tilshunos olim U. Vaynrayx tomonidan

1953-yilda ilmiy muomalaga kiritilgan. Vaynrayx interferensiyaning "bir tilning elementlari ikkinchi tilda qo'llanishi oqibatida yuzaga keladigan lingvistik hodisa" deb ta'riflaydi.

Keyinchalik E. Kellogg, R. Lado, S. Krashen, J. Kummings kabi tilshunoslar interferensiyaning ikkinchi tilni o'rganishdagi asosiy psixolingvistik to'siqlardan biri deb hisobladilar. Masalan, R. Lado kontrastiv tahlil asosida interferensiyaning **til strukturalaridagi farqlar** bilan bog'ladi. U o'xshashliklar o'rgatishni yengillashtirsa, farqlar esa xatolarga olib kelishini isbotlagan.

S. Krashen esa til o'rganishning tabiiyligi va tafakkur asoslariga urg'u beradi. Unga ko'ra, tilni o'zlashtirishda ona tilning ta'siri faqat grammatik jihatdan emas, balki **fikr shakllanishi va ma'no tushunchasida** ham o'z aksini topadi. Aynan shu sababdan, ona tilidagi nutq modelini to'liq ingliz tiliga o'tkazishga harakat qilish noto'g'ri yozmalarga olib keladi.

Interferensiyaning turlari quyidagicha tasniflanadi:

- **Grammatik interferensiya** (gap bo'laklari, zamonlar, kelishiklar);
- **Sintaktik interferensiya** (gap tuzilmasi, so'z tartibi);
- **Leksik interferensiya** (bevosita tarjima, kalka);
- **Fonetik interferensiya** (yozma shaklda kamroq);
- **Stilistik interferensiya** (ona tiliga xos uslubda yozish).

Til o'rganish jarayonida o'rganuvchi ona tilning grammatik, fonetik va semantik xususiyatlarini yangi o'rganilayotgan tilga ko'chirib, bu tilning tabiiy qonuniyatlariga zid bo'lgan xatolarga yo'l qo'yishi mumkin. Bu holat tilshunoslikda "interferensiya" deb ataladi. Interferensiya holati til o'rganishning barcha bosqichlarida, ayniqsa boshlang'ich davrida tez-tez uchraydi va bu xatolar tahlili til o'rgatish metodikasi uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Til o'rganishdagi interferensiya hodisasi nazariy jihatdan bir necha asosiy yondashuvlar orqali izohlanadi. Interferensiya va intertilga oid dastlabki yondashuvlar 1970-yillarga borib taqaladi. Selinker (1972) tomonidan ilgari surilgan "intertil" atamasi, o'rganilayotgan tilning grammatik normalarini o'zlashtirishga intilayotgan o'quvchining mustaqil til tizimi sifatida ta'riflangan. Bu yondashuv Corder (1967) tomonidan ishlab chiqilgan xatolar tahlili nazariyasiga asoslanadi. Unga ko'ra, o'rganuvchining qilgan xatolari ularning tildagi real holatini, strategiyalari va usullarini aniqlashda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Saville (2006) ta'kidlashicha, L1 va L2 o'rganish jarayonida bir qator farqlar mavjud bo'lib, o'rganuvchilar boshlang'ich bosqichda o'xshash yo'nalishda harakat qilishlariga qaramay, keyingi bosqichda ular o'zlarining ichki til tizimini – intertilni shakllantiradilar. Selinker (Tarone, 2006) fikriga ko'ra, intertil quyidagi besh psixolingvistik omil asosida shakllanadi: ona tilidan transfer, ikkinchi til qoidalarini haddan tashqari umumlashtirish (overgeneralization), o'rgatish jarayonining ta'siri (transfer of training), kommunikativ strategiyalar va ikkinchi tilni o'rganish strategiyalari.

Birinci psixolingvistik jarayon – bu ona tilidan transfer. Dong (2013) qayd etganidek, L2 o'rganayotganlar ko'pincha inter-lingval identifikatsiya qiladi, ya'ni ona tilidagi strukturani ikkinchi tilga ko'chiradi. Odlin (1989) til transferini ona til bilan nishon til o'rtasidagi o'xshashliklar va farqlar orqali izohlaydi. Richard va Schmidt (2002) bu transferni ikki turga ajratadi: ijobiy (positive) va salbiy (negative). Ijobiy transfer holatida ona tili va nishon til o'rtasida o'xshashliklar mavjud bo'lib, bu holat til o'rganishni osonlashtiradi (masalan, ingliz tilidagi "dad" va o'zbek tilidagi "dada"). Salbiy transfer esa, ya'ni interferensiya, ona tilidagi strukturani ikkinchi tilga noaniq tarzda ko'chirish natijasida yuzaga keladi (masalan, "I to school go" – o'zbekcha so'z tartibining inglizcha tuzilishga noto'g'ri qo'llanilishi).

Ikkinchi muhim omil – bu ikkinchi til qoidalarini haddan tashqari umumlashtirish. Dong (2013) bu holatni L2 o'rganuvchilarning tildagi umumiy qoidalarni anglab, ularni istisnosiz holda har doim ishlatishga intilishi bilan izohlaydi. Puspita (2019) fikricha, o'rganuvchilar o'tgan zamon shakli -ed qo'shimchasi orqali hosil bo'lishini o'rganib, uni barcha fe'llarga qo'llashadi (masalan, *hitted*, *goed*, *drinked* o'rniga *hit*, *went*, *drank*). Bu esa ularning qoidani o'zlashtirganini ko'rsatsa-da, istisnolarni chuqur o'rganmaslik natijasida xatolik yuzaga keladi. Puspita (2019) bu xatolarni o'quvchining boshqa o'rgangan tillari yoki mavjud bilimlari asosida yuzaga kelgan interferensiya bilan bog'laydi.

Fauziati (2016) tomonidan keltirilishicha, Brown (1994) intertilning o'tkazuvchanlik xususiyatini birinchi bo'lib ta'kidlagan. Undan so'ng Connor (1996) til o'rganuvchilarning xatolarini ikki turga ajratgan: inter-lingval va intra-lingval. Inter-lingval xatolar – bu ona tilining yoki tashqi omillarning ta'siri natijasida yuzaga keladigan xatolar bo'lsa, intra-lingval xatolar esa o'rganuvchining ichki bilimlari yoki o'rganilayotgan tilning o'ziga xos tizimi bilan bog'liq xatolardir. Brown shuni ham qayd etadiki, til o'rganishni endigina boshlayotgan o'quvchilar, ko'pincha faqatgina o'z ona tilining tizimiga tayangan holda fikrlaydilar. Natijada, ushbu bosqichda yuzaga keladigan ko'plab xatolar ona tilining bevosita ta'siri bilan izohlanadi.

Ona tili va chet tili strukturasi o'rtasidagi farqlar ko'pincha yozma nutqdagi interferensiyalarning asosiy manbai hisoblanadi. O'zbek va ingliz tillari **tipologik jihatdan mutlaqo turlicha**: o'zbek tili agglutinativ, ingliz tili esa flektiv til guruhiga mansub.

Quyidagi asosiy farqlar interferensiyaga olib keladi:

Interferensiyaga sababchi bo'luvchi asosiy farqlar (1.1 jadval)

Til jihati	O'zbek tili	Ingliz tili
So'z tartibi	S + O + V (U kitobni o'qidi)	S + V + O (He read the book)
Fe'l zamon shakllari	Qo'shimchalar orqali	Yordamchi fe'llar orqali
So'z yasalihi	Qo'shimcha (kitob+lar+imiz+dan)	Old qo'shimcha, so'z almashuvi
Ko'plik shakllari	-lar qo'shimchasi	-s, -es, ba'zida o'zgartiriladi
Gap bog'lovchilari	Juda keng	Chegaralangan, aniqlikka urg'u

Jadval 1.1

Til o'rganish psixologik va kognitiv jarayon bo'lib, bunda shaxsning aqliy modeli va tafakkuri muhim o'rin tutadi. Tilni yozma shaklda o'zlashtirishda o'rganuvchi o'z fikrini ona tilida shakllantirib, uni tarjima qilishga urinadi. Bu esa ko'pincha **so'zma-so'z tarjima** va **konnotatsiyaviy nomuvofiqlik** kabi muammolarga olib keladi.

Psixolingvistlar (masalan, V. Xomsk, A. Leontyev, G. P. Veynrx) tilni o'rganish jarayonida aqliy faoliyat, fikrlash modeli, ijtimoiy tajriba va madaniy tafakkur birgalikda harakat qilishini ta'kidlaydilar. Agar o'rganuvchi fikrni ingliz tilida emas, o'zbek tilida shakllantirib tarjima qilsa, **interferensiya xatolari** muqarrar yuzaga chiqadi.

Chet tilida fikr bildirishda, ayniqsa yozma shaklda, o'quvchilar ko'pincha avval fikrni ona tilida shakllantiradilar, so'ng uni so'zma-so'z ingliz tiliga tarjima qiladilar. Bu esa sintaktik, semantik va stilistik darajadagi xatolarga sabab bo'ladi. Ushbu hodisa *interlanguage* (oraliq til) va *mental translation* (mental tarjima) tushunchalari bilan bog'liq.

Tarjima asosida fikrlashda quyidagi asosiy muammolar kuzatiladi:

1. **Sintaktik noto'g'riliklar** – o'zbek tilidagi gap tuzilmasini ingliz tiliga ko'chirish (masalan, *She my teacher is* o'rniga *She is my teacher* bo'lishi kerak);
2. **Bevosita leksik tarjima** – idiomatik ifodalarni so'zma-so'z tarjima qilish (masalan, *He gave the soul* o'rniga *He passed away*);
3. **Stilistik nomuvofiqlik** – chet tilidagi uslubga mos kelmaydigan ifodalar (masalan, *I want to say that I am very glad from this* o'rniga *I'm very happy about it*);
4. **Kognitiv yuklama** – ikkinchi tilda fikrlashning rivojlanmaganligi tufayli murakkab jumalarni ifodalashda qiyinchilik yuzaga keladi.

Psixolingvistik yondashuvlar

Bu muammoni chuqurroq tushunish uchun ba'zi psixolingvistik nazariyalarni ko'rib chiqish zarur:

- **Stiven Krashenning** "Monitoring Hypothesis" nazariyasiga ko'ra, o'quvchi tilni avtomatik ravishda ishlatmaydi, balki grammatika qoidasini xotirada tutib, doimo tahrir qilishga intiladi. Bu esa yozma nutqning sekinlashuviga va xatolik ortishiga olib keladi.

- **Lev Vygotskiyning** "Ichki nutq" (inner speech) konsepsiyasi o'quvchilarning avval ona tilida ichki fikr shakllantirib, keyin uni chet tilida ifodalash tendensiyasini tushuntiradi.

- **Jim Cumminsning** "Common Underlying Proficiency" (CUP) modeli esa tillararo umumiy bilish qobiliyatining mavjudligini ko'rsatadi, ammo strukturaviy tafovutlar interferensiyaga sabab bo'lishi mumkinligini ham tasdiqlaydi.

O'quvchilarda kuzatiladigan psixolingvistik holatlar

Quyida ayrim real yozma ishlar asosida psixolingvistik interferensiya namunalari keltiriladi:

- **Xato:** *I am thinking about to go to the cinema.*

Izoh: "about to go" ifodasi o'zbek tilidagi "borish haqida o'ylayapman" shaklining bevosita tarjimasidir. To'g'risi: *I am thinking about going to the cinema.*

- **Xato:** *From this book I get many good information.*

Izoh: O'zbekcha "ko'p yaxshi ma'lumotlar oldim" gapining so'zma-so'z tarjimasi. Ingliz tilida "information" sanalmaydigan ot bo'lgani uchun *a lot of useful information* shakli to'g'ri bo'ladi.

- **Xato:** *I feel myself tired.*

Izoh: O'zbek tilidagi "o'zimni charchagan his qilyapman" iborasi asosida yasalgan xato. To'g'risi: *I feel tired.*

Muammoni bartaraf etish yo'llari

Tarjima asosida fikrlash muammosini kamaytirish uchun quyidagi strategiyalar samarali hisoblanadi:

- **To'g'ridan-to'g'ri fikrlashni o'rgatish** – o'quvchilarga ingliz tilida sodda jumlar bilan fikrni shakllantirish ko'nikmasini rivojlantirish;

- **Tarjimani cheklash** – har doim tarjimadan foydalanmasdan, tilni kontekst asosida o'zlashtirishga undash;

- **Kontrastiv tahlil ishlatish** – ingliz va o'zbek tillarining strukturaviy farqlarini amaliy misollar orqali solishtirish;

- **Ichki nutq mashqlari** – o'quvchilardan biror topshiriqni bajarishdan oldin fikrni ingliz tilida ichki ravishda ifodalashni mashq qilishlarini so'rash.

Mazkur maqolada ingliz tili yozma nutqini o'rganish jarayonida ona tilining – xususan o'zbek tilining – salbiy ta'siri, ya'ni interferensiya holatlari atroflicha tahlil qilindi. Tadqiqotning nazariy va amaliy asoslari, psixolingvistik omillar, grammatik, leksik, sintaktik va uslubiy xatolar, shuningdek, ularni kamaytirishga xizmat qiluvchi metodik va innovatsion yondashuvlar chuqur o'rganildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Corder, S. P. (1981). *Error Analysis and Interlanguage*. Oxford: OUP.
2. Dong, G. (2013). On the nature of interlanguage. *Research on Humanities and Social Sciences*, 3(18), 42–45
3. Ellis, R. (2003). *Task-Based Language Learning and Teaching*. Oxford University Press.
4. Fauziati, E. (2017). Native and Target Language Influence on Students' Interlanguage Production: A Case of Indonesian EFL Composition. *Indonesian Journal of Applied Linguistics*, 7(1), 54–63
5. Harmer, J. (2007). *The Practice of English Language Teaching*. Pearson Longman.
6. James, C. (1998). *Errors in Language Learning and Use*. London: Longman.
7. Karimov, G. (2021). *Ingliz tilini o'qitish metodikasi*. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.

8. Krashen, S. (1982). *Principles and Practice in Second Language Acquisition*. Pergamon Press.
9. Larsen-Freeman, D. (2000). *Techniques and Principles in Language Teaching*. Oxford University Press.
10. McCarthy, M. (2001). *Issues in Applied Linguistics*. Cambridge University Press.
11. Rahmonova, D. (2018). *Til o'rganishda interferensiya muammolari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
12. Richards, J. C., & Rodgers, T. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.